

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand iqtisodiyot va servis
institut rektori M.E.Po'latov

2024 y.

**60411400 – “Inson resurslarini boshqarish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni
(abituriyentlarni) sirtqi ta'lim shakliga tabaqalashtirilgan to'lov kontrakt
asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat o'tkazish va baholash**

DASTURI

SAMARQAND -2024

Tuzuvchi: S.A.Abduhamidov – SamISI “Turizm” kafedrası mudiri,
PhD, dotsent

Taqrizchilar: Arabov N.U. – SamDU “Inson resurslarini boshqarish”
fakulteti kafedrası mudiri, i.f.d., professor
Tursunov F.U. – SamISI “Menejment” kafedrası mudiri, i.f.n.,
dotsent.

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan tasdiqlangan
(2024-yil “29”-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni).

KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyunda "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-sonli farmoyishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 4-noyabrda "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2019 yildan buyon kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar malakasi, toifasi hamda darajasini oshirishga yanada e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmonida "Davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish..."¹ kabi bir qator maqsadlardan kelib chiqib, inson resurslari sifatini oshirishga, inson kapitalini rivojlantirish va davlat fuqarolik xizmatiga mansub sifatli hamda oliy darajaga ega kadrlarni tayyorlash vazifalari yuklatildi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida zamonaviy kadrlar siyosatini olib borish va inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanib jahon standartlari asosida oliy ma'lumotli kadrlarni yetishtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash uchun inson resurslarini boshqarishni xalqaro standartlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2023 yil 22-sentyabrda "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 492-son qarori² hamda mazkur sohaga oid bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda inson resurslarini boshqarish fani muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga jahon standartlari asosida bilim berish, sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilg'or xorij tajribalarini joriy etish, xorijiy soha mutahassis kadrlarini oliy ta'lim muassasalariga jalb etgan holda talabalarga bilim berish hamda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mamlakatimizni yaqin besh yilda jadal rivojlantirishga qaratilgan inson resurslarini boshqarish to'g'risidagi davlat dasturlarida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishda zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

xodimlar tarkibini muvofiqlashtirish va rejalashtirish, inson resurslarini baholashning zamonaviy usullarini hamda inson resurslarini boshqarish tamoillarini amaliyotda qo'llash, mexnat ko'rsatgichlarini shu jumladan personalga xarajatlarni iqtisodiy tahlil qilish, inson resurslarini boshqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash, inson resurslarini strategik rejalashtirish, jamoa mexnatini samarali tashkil etish boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilishi;

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4549998>

² <https://lex.uz/ru/docs/-6615177>

ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soxalarining barcha bo‘linmalarida manajer lavozimida faoliyat yuritish, korxona va tashkilotlarga xodimlarni tanlash, joy – joyiga qo‘yish va lavozimlarga biriktirish, tashkilotning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda, korxona va tashkilotlarda samarali mexnat jamoasini shakllantirish, karparativ axborot tizimlarini, inson resurslari tarkibi tahlili va xisobotlarini tayorlashni malumotlar bazasini yuritishni malakasiga ega bo‘lish; meyoriy- xuquqiy xujjatlarni ishlash, taxlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etish tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxona (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, inson resurslarini bajarishning zamonaviy usullarini joriy qilish, kadrlarni boshqarish tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish asoslash va tatbiq etish, kadrlarni boshqarishda avtamatlashtirilgan axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo‘yicha savollar

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig‘ilishi rahbarlari bilan bo‘lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.
3. 2022 yil 21-iyul kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
4. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
6. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilangan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlari qanday?
8. Islohotlar qanday sohalarda amalga oshirilmoqda va ularning har birining muhim jihatlari nimalardan iborat?
9. Islohotlarning asosiy tamoyillari nimalardan iborat va ular qanday natijalarga erishishni maqsad qilgan?
10. Mamlakatda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qaysi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda?
11. Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlari qanday va ularning mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta’siri bo‘lmoqda?
12. Iqtisodiy islohotlar natijasida qaysi sohalarda eng ko‘p o‘zgarishlar kuzatilmoqda?
13. Mamlakatda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar qanday muammolarni hal qilishga qaratilgan?
14. Ijtimoiy islohotlar natijasida aholi turmush darajasi va farovonligida qanday o‘zgarishlar kuzatilmoqda?
15. Ijtimoiy sohadagi islohotlarning jamiyatning turli qatlamlariga ta’siri qanday?
16. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar qaysi muammolarni hal qilishga qaratilgan?

17. Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar qanday maqsadlarni ko'zda tutadi va ularning natijalari qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda?
18. Islohotlar natijasida ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida qanday sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda?
19. Davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar qanday maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan?
20. Islohotlar natijasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida qanday o'zgarishlar kuzatilmoqda?
21. Davlat boshqaruvi islohotlari mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashda qanday natijalar bermoqda?
22. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajribadan qanday foydalanmoqda?
23. Xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan islohotlar qaysi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda?
24. Xalqaro hamkorlik islohotlar jarayonida qanday ijobiy natijalarga olib kelmoqda?
25. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari qanday?
26. Kelgusida qaysi sohalarda islohotlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda?
27. Islohotlarning uzoq muddatli ta'siri va natijalari qanday bo'lishi kutilmoqda?
28. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning mahalliy darajadagi ta'siri qanday?
29. Mahalliy jamoalar islohotlarda qanday rol o'ynaydi va ularga qanday ta'sir ko'rsatadi?
30. Islohotlar natijasida mahalliy iqtisodiyot va infratuzilmada qanday o'zgarishlar yuz bermoqda?
31. Texnologiya va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?
32. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun qanday dastur va tashabbuslar mavjud?
33. Raqamli transformatsiya jarayonida islohotlarning roli qanday?
34. Tadqiqot va rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
35. Islohotlar ilm-fan va texnologiya rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
36. Ilmiy tadqiqotlarga ko'proq sarmoya kiritish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
37. Islohotlar fuqarolarning faolligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
38. Islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun fuqarolarni qanday jalb qilish mumkin?
39. Islohotlar natijasida mamlakatning biznes muhiti qanday o'zgarishlarga uchramoqda?
40. Kichik va o'rta biznes uchun islohotlar qanday imkoniyatlar yaratmoqda?
41. Yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
42. Islohotlar xorijiy sarmoyani jalb qilish uchun qanday imkoniyatlar yaratmoqda?
43. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va ochiqligini ta'minlashda islohotlarning roli qanday?
44. Kelgusida qaysi sohalarda islohotlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda va nima uchun?
45. Islohotlarning uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini qanday baholash mumkin?

60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi bo'yicha savollar

1. Inson resurslarini boshqarish nima va uning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Inson resurslarini boshqarishning asosiy funksiyalari qanday?
3. Inson resurslarini boshqarish strategiyasi va tashkilot strategiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.
4. Kadrlarni tanlash jarayonida qaysi metodlardan foydalaniladi? Ularning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
5. Kadrlarni joylashtirishda qanday omillarni hisobga olish kerak?
6. Intervyu olishning samarali usullarini sanab bering va ularning har birini qisqacha tushuntiring.
7. Tashkilotda kadrlarning ta'limi va rivojlantirilishi qanday amalga oshiriladi?
8. Ishchilarni o'qitish va rivojlantirishning tashkilotdagi samaradorligi qanday baholanadi?
9. Kadrlarni rivojlantirish strategiyasining asosiy elementlarini sanab bering.
10. Ish haqi tizimining asosiy komponentlari nimalardan iborat?
11. Samarali mukofot tizimini qanday yaratish mumkin?
12. Ishchilarning motivatsiyasini oshirish uchun qanday rag'batlantirish choralari qo'llanilishi kerak?
13. Inson resurslarini boshqarish jarayonida mehnat qonunchiligi qoidalariga qanday rioya qilinadi?
14. Ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda Inson resurslarini boshqarish qanday rol o'ynaydi?
15. Kadrlar siyosatida mehnat huquqi va xavfsizlik qoidalarining ahamiyatini tushuntiring.
16. Ishchilarning ishlash samaradorligini baholashda qaysi usullardan foydalaniladi?
17. Samaradorlik baholash natijalari qanday qilib ishchilar rivojlanishi uchun qo'llanilishi mumkin?
18. KPI nima va ularni qanday aniqlash mumkin?
19. Raqobatbardoshlikni ta'minlashda inson resurslarini boshqarishning roli qanday?
20. Tashkilotda innovatsion madaniyatni rivojlantirish uchun qanday strategiyalar qo'llanilishi mumkin?
21. Inson resurslarini boshqarishda texnologiyalarning roli va ahamiyati haqida gapiring.
22. Bozordagi raqobatbardosh muhitni tahlil qilishda qanday strategiyalarni qo'llash mumkin?
23. Inson resurslarini boshqarish rahbarlari raqobatchilarga qarshi qanday choralar ko'rishi mumkin?
24. Bozor tendensiyalarini kuzatish va o'zgarishlarga moslashish uchun qanday usullar mavjud?
25. Tashkilotning madaniyati inson resurslarini boshqarish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
26. Ijtimoiy mas'uliyat nima va uning inson resurslarini boshqarishdagi o'rni qanday?
27. Ishchilarni ijtimoiy mas'uliyatli faoliyatlarga jalb qilishning afzalliklari nimalardan iborat?
28. Tashkilotda inson resurslarini rejalashtirish jarayonini tushuntiring.
29. Kadrlarni rejalashtirishda ehtiyojlarni aniqlashning qanday usullari mavjud?
30. Inson resurslarini rejalashtirishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun qanday qadamlar qo'yilishi kerak?
31. Tashkilotda konfliktlarni boshqarishning qanday strategiyalari mavjud?
32. Konfliktlarni hal qilishda vositachilikning roli qanday?

33. Stress boshqarish va konfliktlarni kamaytirish uchun qanday usullar qo'llanilishi mumkin?
34. Xalqaro tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq qanday o'ziga xos muammolar mavjud?
35. Xalqaro kadrlarni boshqarishning asosiy jihatlari nimalardan iborat?
36. Madaniy xilma-xillikni boshqarish qanchalik muhim va qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?
37. Raqamli transformatsiya inson resurslarini boshqarish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
38. Inson resurslarini boshqarishda sun'iy intellekt va avtomatlashtirish qanday qo'llanilishi mumkin?
39. Digital texnologiyalar yordamida ishchilarning samaradorligini oshirish usullarini sanab bering.
40. Kadrlar siyosati nima va u qanday qilib tashkilotning umumiy strategiyasiga moslashtirilishi mumkin?
41. Samarali kadrlar siyosati uchun qanday strategiyalar qo'llanilishi kerak?
42. Kadrlar strategiyasining muvaffaqiyatini qanday baholash mumkin?
43. Tashkilot madaniyatini shakllantirishda inson resurslarini boshqarish qanday rol o'ynaydi?
44. Qanday qilib inson resurslarini boshqarish orqali ijobiy ishchi madaniyati rivojlantiriladi?
45. Madaniy o'zgarishlarga moslashish jarayonini qanday boshqarish mumkin?

BAHOLASH ME'ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

Yuqorida ko'rsatilgan savollar yuzasidan o'tkazilgan suhbat jarayonida ***olish mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.***

Suhbat natijalari bo'yicha to'plagan umumiy ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A'lo	86,0-100
2	Yaxshi	71,0-85,0
3	Qoniqarli	56,0-70,0
4	Qoniqarsiz	0-55,0

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan

qo'yilgan ballarning o'rtachasi **55 ball**dan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20-apreldagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-113-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 20-noyabrdagi "Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 612-sonli qarori.
4. A.B. Xayitov "Inson resurslarini boshqarish" darslik Tosh.2019 yil
5. Gulnora Abdurahmonova "Inson resurslarini boshqarish" darslik 2023 yil 396 bet .
6. M.M Azlarova "Inson resurslarini boshqarish" o'quv qullanma Tosh. 2019 yil
7. N.R.Narziqulov, B. CH.Murtazayev, I.A.Bakiyeva "Inson resurslari iqtisodiyoti" o'quv qo'llanma sisatida tavsiya etilgan 2005 yil

Internet saytlari

8. <http://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
9. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
10. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
11. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
12. www.tfi.uz
13. www.ziyonet.uz
14. www.norma.uz
15. www.lex.uz
16. www.gov.uz
17. www.mf.uz